

UDK: 334.722:316.356.2(575.1)

O‘ZBEKISTONDA OILAVIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)

Bahriddinov A‘zamjon Valeriyevich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Iqtisodiyot fakulteti, IK-S-321 guruh talabasi

E-mail: business.leverow@gmail.com

Annotatsiya.

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari, huquqiy bazasi va amaliy yo‘nalishlari Samarqand viloyati misolida tahlil qilingan. Tadqiqot davomida “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi qonun hujjatlari, davlat dasturlari hamda 2023–2025-yillarga oid statistik ma‘lumotlar asosida viloyatda oilaviy korxonalar faoliyatining hozirgi holati baholangan. Mualliflarning fikricha, Samarqand viloyatida oilaviy tadbirkorlik xizmat ko‘rsatish, hunarmandchilik, turizm va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohalarida yuqori sa‘yi-harakatga ega. Maqola yakunida hududda oilaviy tadbirkorlik samaradorligini oshirishga qaratilgan tashkiliy, moliyaviy va raqamli mexanizmlar bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: oilaviy tadbirkorlik, oilaviy korxonalar, kichik biznes, Samarqand viloyati, xizmat ko‘rsatish sohasi, hunarmandchilik, raqamli iqtisodiyot, davlat qo‘llab-quvvatlash, hududiy rivojlanish.

Аннотация.

В статье на примере Самаркандской области проанализированы теоретико-методологические основы, правовая база и практические направления развития семейного предпринимательства в Республике Узбекистан. На основе закона «О семейном предпринимательстве», государственных программ и статистических

данных за 2023–2025 годы оценено текущее состояние деятельности семейных предприятий. По мнению автора, в Самаркандской области семейное предпринимательство обладает высоким потенциалом в сфере услуг, ремесленничества, туризма и переработки сельскохозяйственной продукции. В заключении предложены научно-практические рекомендации по совершенствованию организационных, финансовых и цифровых механизмов повышения эффективности семейного предпринимательства в регионе.

Ключевые слова: семейное предпринимательство, семейное предприятие, малый бизнес, Самаркандская область, сфера услуг, ремесленничество, цифровая экономика, государственная поддержка, региональное развитие.

Abstract.

The article analyzes the theoretical-methodological foundations, legal basis and practical directions of family entrepreneurship development in the Republic of Uzbekistan on the example of the Samarkand region. Based on the Law “On Family Entrepreneurship”, state programs and statistical data for 2023–2025, the current state of family enterprise activities in the region is assessed. The author argues that family entrepreneurship in Samarkand region has high potential in services, handicrafts, tourism and agricultural processing. The article concludes with scientific and practical recommendations on improving organizational, financial and digital mechanisms for enhancing the efficiency of family entrepreneurship in the region.

Keywords: family entrepreneurship, family enterprise, small business, Samarkand region, services sector, handicrafts, digital economy, state support, regional development.

Kirish

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, jumladan, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosatining strategik vazifasiga aylangan. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da aholi

farovonligini ta'minlashning bevosita omili sifatida oilaviy korxonalarni rag'batlantirish, ularning faoliyat sohaslarini kengaytirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlashning yangi mexanizmlarini joriy etish vazifalari belgilab berilgan.

Oilaviy tadbirkorlik shakli – bu nafaqat iqtisodiy munosabatlar, balki ijtimoiy birdamlik, oila a'zolarining mehnat va ta'lim madaniyatini shakllantirish, mahalliy resurslardan oqilona foydalanish bilan bog'liq murakkab institutsional tizimdir. Ayniqsa, Samarqand viloyati kabi tarixiy va madaniy merosga boy, hunarmandchilik an'analari rivojlangan, turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududda oilaviy tadbirkorlik shakli o'ziga xos iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, so'nggi yillarda Samarqand viloyatida tashkil etilayotgan korxonalar tarkibida oilaviy korxonalar ulushi ortib borayotgan bo'lsa-da, ularning sektoral diversifikatsiyasi, raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi, eksport salohiyati va innovatsion faolligi yetarli emas. Bu esa hududiy iqtisodiyotning yetarli darajada diversifikatsiyalanmaganligini ko'rsatadi va ushbu masalani ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Tadqiqot maqsadi – Samarqand viloyatida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning hozirgi holatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot uslubi

Tadqiqot davomida tahliliy-tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, mantiqiy umumlashtirish va dinamik qatorlar usullaridan foydalanildi. Ma'lumotlar manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining hamda Samarqand viloyati statistika boshqarmasining (samstat.uz) rasmiy ma'lumotlari, qonun hujjatlari (Lex.uz portali), Iqtisodiyot vazirligi va Markaziy bankning analitik hisobotlari hamda mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi.

Nazariy asos sifatida xorijiy iqtisodchilar (P. Drucker, J. Schumpeter, R. Cantillon) hamda mahalliy olimlar (S.G'ulomov, B.Y. Xodiyev, M.S. Qosimova) ishlari, shuningdek,

oilaviy biznesni o‘rganishga oid global metodologiyalar (Family Business Network, STEP Project) ishlatildi.

Asosiy qism

1. Oilaviy tadbirkorlikning nazariy-huquqiy asoslari

Oilaviy tadbirkorlik – bu jamoaviy umumiy mol-mulk asosida oila a‘zolari tomonidan yuridik shaxs tashkil etgan (oilaviy korxonalar) yoki yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati shaklidir. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 26-apreldagi O‘RQ-327-sonli “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi qonuni (2021 va 2023-yillardagi tahrirlari bilan) ushbu sohaning huquqiy asosini tashkil etadi. Qonunga muvofiq, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining eng kam soni ikki kishidan oz bo‘lmasligi, yollanma xodimlar bilan birgalikda umumiy soni kichik tadbirkorlik subyektlari uchun belgilangan o‘rtacha yillik xodimlar sonidan oshmasligi belgilangan.

Xorijiy adabiyotlarda oilaviy biznes (family business) iqtisodiyotning eng qadimiy va barqaror shakli sifatida tilga olinadi. Jahon iqtisodiy forumi ma‘lumotlariga ko‘ra, jahon yalpi ichki mahsulotining 60–70 foiziga yaqin qismi va xususiy sektor ish o‘rinlarining katta qismi oilaviy korxonalar hissasiga to‘g‘ri keladi. AQSh, Germaniya, Italiya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlarda oilaviy biznes nafaqat kichik korxonalar, balki yirik milliy konsernlarning ham asosini tashkil etadi (Walmart, BMW, Samsung, Toyota kabi misollar).

Mahalliy ilmiy adabiyotda oilaviy tadbirkorlik ko‘pincha hunarmandchilik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, maishiy xizmatlar va savdo bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. Biroq, raqamli iqtisodiyot sharoitida oilaviy korxonalarning IT-xizmatlar, onlayn savdo, kontent yaratish, eksport-import vositachiligi kabi yo‘nalishlardagi imkoniyatlari yetarlicha tadqiq qilinmagan.

O‘zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning huquqiy bazasi quyidagi normativ hujjatlar bilan mustahkamlangan: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-oktyabrdagi PQ-4498-sonli “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat

dasturlari doirasida amalga oshiriladigan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi Qarori, 2024-yil 7-sentabrdagi PQ-312-sonli “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash kompleks dasturini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi Qarori, hamda “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida’gi qonun. Mazkur hujjatlar oilaviy korxonalar uchun imtiyozli kreditlar, soliq imtiyozlari, “Yagona darcha” tamoyili asosida ro‘yxatdan o‘tkazish kabi qulayliklar yaratgan.

2. Samarqand viloyatida oilaviy tadbirkorlik holatining tahlili

Samarqand viloyati O‘zbekistondagi eng yirik iqtisodiy va madaniy hududlardan biri hisoblanadi. 2025-yil 1-fevral holatiga ko‘ra viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 38 148 tani tashkil etgan bo‘lib, ularning 31 947 tasi yoki 83,7 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalardir. Mazkur dinamika viloyat iqtisodiyotida kichik tadbirkorlik, jumladan, oilaviy tadbirkorlikning ulushi yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

2024-yil yakunlari bo‘yicha viloyat yalpi hududiy mahsulotining 65,9 foizi kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan. Sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmining 46,5 foizi (4 681,4 mlrd so‘m), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari mahsulotlarining 92,9 foizi (6 264,2 mlrd so‘m), umumiy investitsiyalar hajmining 63,3 foizi (6 609,3 mlrd so‘m), qurilish ishlarining 86,2 foizi (2 352,9 mlrd so‘m), chakana tovar aylanmasining 88,5 foizi (7 412,4 mlrd so‘m) va xizmatlar umumiy hajmining 63,1 foizi (9 452,9 mlrd so‘m) aynan kichik tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Sohalar kesimida tahlil shuni ko‘rsatadiki, viloyatda yangidan tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng katta qismi savdo sohasiga (533 ta), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligiga (167 ta), yashash va ovqatlanish xizmatlariga (162 ta) hamda sanoatga (161 ta) to‘g‘ri keladi. Axborot va aloqa sohasida atigi 45 ta yangi korxonalar tashkil etilgan, bu raqam viloyat IT-sektorida oilaviy biznes formatining hali to‘liq rivojlanmaganidan dalolat beradi.

1-jadval.

Samarqand viloyatida 2025-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish dinamikasi

Hudud	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %	Aholi jon boshiga, ming so'm	O'sish sur'ati, %
Samarqand viloyati	14 972,7	114,0	3 476,9	111,6
Samarqand shahri	4 139,5	117,7	6 935,0	115,6
Kattaqo'rg'on sh.	265,1	110,3	2 761,8	109,2
Urgut tumani	655,7	112,1	1 142,3	109,5
Pastdarg'om tumani	647,9	110,3	1 649,1	107,8
Jomboy tumani	398,1	110,9	2 045,9	108,3
Qo'shrabot tumani	182,5	111,3	1 261,2	109,3
Nurobod tumani	186,3	110,2	1 122,5	108,1

Manba: Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan (samstat.uz).

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Samarqand viloyatida xizmatlar ishlab chiqarishning umumiy hajmida shahar markazlari yetakchilik qiladi. Samarqand shahriga viloyat xizmatlarining 27,6 foizi to'g'ri keladi va o'sish sur'ati 117,7 foizni tashkil etadi. Bu shahar va shahar atrofidagi tumanlarda oilaviy tadbirkorlik uchun xizmat ko'rsatish bozorida sezilarli imkoniyat mavjudligini ko'rsatadi. Qo'shrabot, Nurobod kabi olis tumanlarda esa xizmatlar hajmi past, lekin o'sish dinamikasi barqaror (110–111 %), bu hududlarda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi bandligi va daromad darajasini oshirishning real istiqboli borligini tasdiqlaydi.

3. Samarqand viloyatida oilaviy tadbirkorlikning sohaviy yo'nalishlari

Samarqand viloyati o‘ziga xos hududiy salohiyatga ega bo‘lib, bu yerda oilaviy tadbirkorlikni quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda rivojlantirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Birinchidan, hunarmandchilik va milliy buyumlar ishlab chiqarish. Samarqand kashtachiligi, qog‘oz ishlab chiqarish (Konig‘il qog‘ozi), kulolchilik, gilam to‘qish, suzanachilik kabi an‘anaviy sohalar oilaviy korxonalar shakliga eng mos sohalar qatoriga kiradi. Bu sohalarda yoshlar va ayollar mehnatini jalb etish, milliy madaniy merosni saqlash, hududiy brendni rivojlantirish imkoniyati mavjud.

Ikkinchidan, turizm va mehmondo‘stlik xizmatlari. Samarqand UNESCO Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan tarixiy obidalarga boy bo‘lib, 2023–2025-yillarda xorijiy sayyohlar oqimi sezilarli darajada ortdi. Oilaviy mehmonxonalar (guesthouse), milliy taomlar restoranlari, ekoturizm va agroturizm xizmatlari sohasi oilaviy tadbirkorlik uchun istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, viloyatda yashash va ovqatlanish bo‘yicha 162 ta yangi kichik korxonalar tashkil etilgan, lekin ularning aksariyati shahar markazida joylashgan.

Uchinchidan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash. Viloyatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 92,9 foizi kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilmoqda. Mevali quritma, konserva, sut mahsulotlari, novvoyxonalar oilaviy korxonalar shaklida muvaffaqiyatli yuritilishi mumkin. Bu yo‘nalish import o‘rnini bosish va eksport salohiyatini oshirish imkoniyati nuqtai nazaridan ham muhim.

To‘rtinchidan, raqamli xizmatlar va elektron tijorat. 2024-yil yakuni bo‘yicha viloyatdagi axborot va aloqa sohasida tashkil etilgan korxonalar atigi 45 ta. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oilaviy korxonalar onlayn savdo platformalari, ijtimoiy tarmoqlardagi marketing, ekspres-yetkazib berish, IT-xizmatlar (web-saytlar yaratish, dasturiy mahsulotlarni qo‘llab-quvvatlash) sohasida faol ishtirok etishi mumkin. Bu yo‘nalishni rivojlantirish uchun yoshlarni raqamli kompetensiyalarga o‘rgatish va kompleks ta‘lim dasturlarini yo‘lga qo‘yish zarur.

Beshinchidan, maishiy va ijtimoiy xizmatlar. Sartaroshxonalar, atelyelar, bolalar uchun ta'lim markazlari, sog'liqni saqlash xizmatlari (ushbu yo'nalishda viloyatda korxonalar soni 9 tadan 11 taga o'sgan) – bularning barchasi oilaviy biznes uchun mos formatdir.

4. Oilaviy tadbirkorlik rivojlanishidagi muammolar

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, Samarqand viloyatida oilaviy tadbirkorlikning yetuk rivojlanishiga quyidagi muammolar to'sqinlik qilmoqda:

– **moliyaviy resurslarning yetishmasligi va kreditlardan foydalanish jarayonidagi byurokratik to'siqlar.** Garchi PQ-4498 doirasida imtiyozli kreditlash tartibi yaxshilangan bo'lsa-da, qishloq joylarda yashovchi oilalar uchun garov mulkining yetishmasligi kreditga ega bo'lishni qiyinlashtirmoqda;

– **raqamli kompetensiyalarning past darajasi va internet-xizmatlardan foydalanish madaniyatining yetarli emasligi.** Tumanlarda oilaviy korxonalar onlayn savdo platformalari, raqamli marketing, elektron to'lov vositalaridan kam foydalanmoqda;

– **tarmoq diversifikatsiyasining pastligi.** Oilaviy korxonalar asosan savdo va an'anaviy xizmatlar bilan shug'ullanmoqda, IT, biotexnologiyalar, ekoturizm kabi yangi yo'nalishlar kam qamrab olingan;

– **bilim va malaka yetishmovchiligi.** Oilaviy biznes egalarining ko'pchiligida marketing, moliyaviy boshqaruv, soliq qonunchiligi, eksport tartibi bo'yicha bilimlar yetarli emas;

– **ishlab chiqarish va xizmat infratuzilmasining nomutanosibliigi.** Logistika, omborxonalar, sovuq saqlash bazalari, elektr energiyasi va internet bilan ta'minlanish darajasi tumanlar bo'yicha bir xil emas.

5. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha takliflar

Yuqorida bayon etilgan tahlil natijalari asosida Samarqand viloyatida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning quyidagi ilmiy-amaliy yo‘nalishlari ishlab chiqildi:

1. Hududiy “Oilaviy biznes markazlari”ni tashkil etish – har bir tumanda yagona maslahat, ta’lim va moliyaviy xizmatlar markazi tashkil qilinishi, bu yerda biznes-rejani tuzish, soliq va ro‘yxatdan o‘tish, kreditga ariza topshirish kabi xizmatlar “bir oyna” tamoyili asosida ko‘rsatilishi maqsadga muvofiq.

2. Oilaviy korxonalar uchun raqamli platforma yaratish. Mahalliy oilaviy korxonalar mahsulotlarini birlashtirgan elektron savdo platformasini (masalan, “Samarkand Family Goods”) tashkil etish, mahsulotlarni xalqaro bozorlarga (Alibaba, Etsy, Amazon Handmade) chiqarish bo‘yicha integratsiya yo‘lga qo‘yilishi lozim.

3. Hunarmandchilik klasterlarini shakllantirish. Urgut, Konig‘il, Qo‘shrabot kabi an’anaviy hunarmandchilik markazlarida oilaviy korxonalarni birlashtiruvchi ixtisoslashgan klasterlar tashkil etilishi, hamkorlikda eksport, xom ashyo va o‘qitish masalalari hal etilishi mumkin.

4. Moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish. Garovsiz mikrokreditlash, agar oilaning ikki avlodi tomonidan birgalikda yuritilayotgan korxonalar bo‘lsa imtiyozli stavkalar joriy etish, davlat-xususiy hamkorlik (PPP) doirasida oilaviy korxonalarga maxsus venchur fondlar tashkil qilish.

5. Ta’lim va kasb-hunar tayyorlash. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti hamda boshqa oliy ta’lim muassasalarida “Oilaviy biznesni boshqarish” qisqa muddatli kurslari tashkil etilishi, oilaviy korxonalar uchun maxsus o‘quv qo‘llanmalar nashr etilishi zarur.

6. Turizm bilan integratsiya. “Samarqand turistik marshruti” doirasida oilaviy mehmonxonalar, ustaxonalar, milliy taomlar restoranlarini bir tarmoq sifatida birlashtirish, ularga marketing va bron qilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi yagona axborot tizimini yaratish.

7. Raqamli kompetensiyani oshirish dasturi. Oilaviy korxonalar uchun bepul onlayn-kurslar (digital marketing, SMM, elektron hisob-kitob, CRM tizimlari) tashkil etish; har bir tumanda IT-mentor ajratish.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda, jumladan, Samarqand viloyatida oilaviy tadbirkorlik mintaqaviy iqtisodiyotning muhim bo'g'iniga aylanib bormoqda. Viloyat YaHMning 65,9 foizi kichik tadbirkorlik subyektlari, ularning sezilarli qismi esa oilaviy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgani bu sohaning strategik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, hududda oilaviy tadbirkorlikning yanada rivojlanishi uchun moliyaviy resurslarga kirishni osonlashtirish, raqamli kompetensiyalarni oshirish, sektoral diversifikatsiyani kengaytirish, hunarmandchilik va turizm sohalarini klaster shaklida tashkil etish zarurdir. Ushbu maqolada taklif etilgan yo'nalishlar amaliyotga joriy etilsa, viloyatda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va hududning iqtisodiy diversifikatsiyasiga sezilarli hissa qo'shish mumkin.

Kelajakdagi tadqiqotlar Samarqand viloyatining alohida tumanlarida oilaviy tadbirkorlikning sohaviy xususiyatlarini chuqurroq o'rganish, oilaviy korxonalarining innovatsion faolligini va eksport salohiyatini empirik baholashga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 26-apreldagi O'RQ-327-sonli "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonuni (2021-yil 21-aprel va 2023-yil 27-dekabrdagi tahrirlari bilan) // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, lex.uz/docs/-2004956
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // lex.uz/docs/-5841063

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-oktyabrdagi PQ-4498-sonli “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshiriladigan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-sentabrdagi PQ-312-sonli “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash kompleks dasturini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri, 2023-yil 25-may).
6. G‘ulomov S.S. (umumiy tahriri ostida). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: tashkil etish, rivojlantirish, boshqarish. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2005. – 280 b.
7. Qosimova M.S., Xodiyev B.Y., Samadov A.N., Muhiddinova U.S. Kichik biznesni boshqarish. – T.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2003. – 240 b.
8. Shadibekova D. Prospective Development Analysis of Small Business and Entrepreneurship of Uzbekistan // Journal of Engineering Management (Scopus indexed). – 2020. – Issue March–April. – P. 1733–1743.
9. Boltayev M., Qosimova M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: o‘quv qo‘llanma. – T., 2011. – 215 b.
10. Drucker P. F. Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. – New York: Harper & Row, 1985. – 277 p.
11. Family Business Network (FBN) Global Survey Report 2023. – Lausanne: FBN International, 2023.
12. Samarqand viloyati statistika boshqarmasining rasmiy ma’lumotlari // samstat.uz (foydalanilgan sana: 2025-yil aprel).
13. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi yillik statistik to‘plamlari. – T., 2023–2025.

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-apreldagi 222-sonli Qarori “2022–2026-yillarda Samarqand viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish to‘g‘risida”.